

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

“DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR” ASARIDAGI ANTROPONIMLAR

Annotatsiya: Onomastikaning antroponimika sohasi bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Lekin, asarlarni onomastik jihatdan tahlil qilish bugungi kunda rivoj topyapti. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi antroponimlar guruhlarga ajratildi.

Kalit so‘zlar: Onomastika, antroponimika, ism, familiya, taxallus, laqab, teonimlar, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asari.

Abstract: Many works have been carried out in the field of anthroponymics of onomastics. However, the onomastic analysis of the works is developing today. In this article, the anthroponyms in O’tkir Hashimov’s "Writings on the Border of the Notebook" were divided into groups.

Key words: Onomastics, anthroponomy, name, surname, nickname, nickname, theonyms, the work "Inscriptions on the border of the notebook".

Tilshunoslikning ko‘pchilik sohalari Vatanimiz Mustaqillikka erishganidan so‘ng rivojlana boshladi. Aynan onomastika yo‘nalishida ham ko‘p muvaffaqiyatga erishildi. Onomastikaning antroponimika, toponimika turlarida juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikka qadar yurtimizdagi barcha joylar Ruscha nomlar bilan atalgan edi. Mustaqillikka erishganimizdans so‘ng o‘zimizning milliyligimizga, tariximizga tayangan holda qayta nomlandi. Viloyat, shahar, tumanlar, ko‘chalarga butun dunyoni o‘zining aqli bilan lol qoldirgan bobolarimizning nomlari bilan nomlandi. Onomastikada bunday toponim va antroponimlarga juda ko‘p tadqiq qilindi, lekin asarlardagi toponimlar endi o‘rganilyapti. Ya’ni asarlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish bugungi kunnning muhim masalasi hisoblanadi.

Antroponim (yunoncha: antropos – antropos – opota – atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronym va boshqalar). Atoqli otlar tiplaridan biri.¹ Onomastikaning antroponimika turida ism, familiya, taxallus va laqablar tadqiq qilinadi. O‘zbek antroponimikasining asoschisi E. A. Begmatov desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. E. Begmatov antroponimika sohasi bo‘yicha “Nomlar va odamlar”, “Kishi nomlari imlosi”, “O‘zbek ismlari imlosi”, “O‘zbek ismlari”, “Ism chiroyi” kabi asarlar yozgan.

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida juda ko‘p antroponimlar qo‘llanilgan. Ism – yakka shaxsni o‘zgalardan oilada (avlodda va umuman jamiyatda) farqlash uchun unga go‘daklik davrida beriladigan atoqli otdir. **Ismlar:** Hayotning barcha achchiq-chuchugini men bilan baravar totgan umr yo‘ldoshim, maslakdoshim, farzandlarimning Onasi - O‘lmasxonga bag‘ishlayman. Shoh-Jahon dunyodagi yeti mo‘jizaning biriga tativulik “Tojmahal”ni bunyod etdi. -Uyga kir, Farrux! – dedim baqirib. Ulug‘ olim - Suqrot ko‘chada ketayotsa, bir nomard orqasidan kelib, kuragiga pichoq uraldi. Shunday kunlardan birida ashaddiy jinoyati uchun o‘n besh yilga qamalgan Tusunboy degan mahbusdan xat keldi. Ertasiga

¹ B. Yo‘ldoshev O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand - 2011

Tursunboyning sobiq sinfdoshi, institutda o‘qiyotgan, yozgi ta’tilga kelgan Farhod bog‘dagi choyxonada ulfatlar bilan osh yeb o‘tirib, kecha kanal bo‘yida bittasi bilan “maza qilgani”ni aytib maqtanadi. Zumrad xola har safar nafaqa puli olganida uzummi, handalakmi, xullas biron-bir tansiq narsa xarid qiladi. Hovliga kirishi bilan etagiga yopishgan Hasan-Husan nevaralariga olma ularashdi. Kechqurun kelini ishdan kelganida unga ham berdi. Azimjon xizmat safarida edi. – Izdachisini berdingmi, A’zam? ... Bo‘rivoy kiyik bolasini qo‘li bilan tutib olgan, deganlarida to‘g‘risi, ishonmadim. “Aflatun bo‘p ket-e!” O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘snnisi ihboshi bo‘ldi. Muallif shu tarzda itlarga qo‘yiladigan laqablar ro‘yxatini davom ettiradi: Akbar, Alisher, Anvar, Arab, Asqar, Bek, Botir, Jo‘ra, Komila, Lola, Muxtor, Naim, Nodir, Nargiz, Nodira, Umar, Padar, Rafiq, Sadir, Sulton, Tohir, Toyir, Haydar, Hasan, Shayx, Amir, Mayna va hokazo... Ana, sizga itlarga mo‘ljallangan “odam emaslar” nomi! Chernyayev ayni saratonda Toshkentni qariyb ikki oy suvsiz qoldirib qamal qilganini, shaharga bostirib kirkach, munkillagan kampirlaru, beshikdagi go‘dakkacha ayovsiz qirganini eshitib, podshoi olam qattiq ranjibdilar. To‘ychiboy to‘y qiladigan bo‘ldi: sunnat to‘y... Turg‘unimni qayoqqa obketding, juvonmarg! Farruh. Uch yashar. Yulduz. Uch yashar. Doniyor. Olti yashar. Sherzod. To‘rt yashar. Hilola. To‘rt yashar. Zilola. Uch yashar. Xurshid. Besh yarim yashar. Jahongir. Olti yashar. Ziyoda. Uch yashar. – Jamshid jinni-a? – Unaqa dema, qizim, ukang yaxshi bola-ku! Dilorom. Besh yashar. - Jevachkangdan Shohruhga ham berdingmi. Dilish? -Humoyunning choyi qantimni yeb qo‘ydi! Muhammadyor. Olti yashar. Shoh Bobur o‘lim to‘shagida yotgan o‘g‘li Humoyun atrofidan yetti marta aylanib, o‘g‘lining ajalini Allohdan o‘ziga tilab olgani to‘g‘risidagi dalil ko‘p manbalarda yozilgan. Sizni o‘g‘lingiz Albert, qizingiz Ofeliya, kuyovingiz Fridrix, keliningiz, keliningiz Luiza, nevaralariniz – Richard, Ernest, Izabella, Karlson, Silviya, Ziko, Indira, Kastilio, Chandra, Marilda, Archibald va chevarangiz va... - Moshxo‘rda kutib turishibdi!.. – Nasibamizni jeb juribbiz, bolam. Lelinniyam ko‘rdik. – Hoy, Norbibi, chay keltirmaysanba? – keyin Hasrat qildi. – Tuvri, - dedi kampir hech baloni eshitmay. – Norqulingizdi kelini qo‘zilabdi... Qiz... Avazjon ham “ishga” boradilar. “Jonon” ham Shirin jilmaydi. – Unaqa bo‘lsa, Bo‘rivoy, shu gapimni u qulog, bu qulog‘ing bilan eshitib qo‘y!

- Лёля! - Lolaxon ekansiz-da. O‘zingiz ham huddi Lolaga o‘xshab... - Lolaxonmas, Лёля! – dedi u gapimni kesib. - E, La’lixon deng?! Hamshira qizdan ikki tiyin qarz olib, to‘rtinchidagi Marat degan o‘rtog‘imga qo‘ng‘iroq qildim.

Ulug‘bek 1019 yulduzning xarakat jadvalini tuzdi. Bu mukarram zotning farzandlaridan biri Hoshimjon to‘ra mening bobom edilar. Hikoya chindan ham juda ta’sirchan edi, Stalin lagerida azob chekkanlar qismati butun daxshati bilan tasvirlangan... Unda ishtirok etishga o‘tov egasi – Chimirvoy akani ham ko‘ndirdik.

Familiya – (lotincha familiya – uy, oila, xonodon) – shaxsning ma’lum oilaga mansubligini ko‘rsatadigan, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan rasmiy nomdir. Ismlar va familiyalar: Rus adibi Mixail Bulgakovning “qo‘lyozmalar yonmaydi” degan gapi bor. Prezidiumda markazdan kelgan “katta odam” (adashmasam, familiyasi o‘rtoq Bessarabov), uning yonida “yurt otalari” va “yurt opalari” o‘tirishibdi. I. Duxnovskiy degani esa “Itlarga qanday laqab qo‘yish kerak?” sarlavhali kattagina maqolasi bilan chiqqan. Ustoz Ozod Sharafiddinov “shunchaki”, “kezi kelganda” aytgan bu gap tagida teran ma’no borligini keyinroq tushundim. Rus podsholari orasida qahri qattiqligi bilan “nom chiqqan” Ivan Grozniyning qismati g‘alati bo‘lgan. - Sizga kim kerak, azizim? “Qorovul Petrosyan” deysizmi? – Kimni so‘rayapsi, batano? “Etikdo‘z, Panjikide?” -Nima? Kim deysiz! “Akademik Alijonip?” Yuzi shu qadar tiniq, qoshko‘zi, lablari shu qadar mutanosib, shu qadar jozibali ediki, rahmatli Chingiz Ahramov tirilib kelsa, o‘zbek madonnasini shu ayolga qarab chizgan bo‘lardi. Buning uchun ulug‘ yoshdagagi ajdodlarimga, professor Sharif Yusupovga, xalq akademigi Habibullaxon Qosimovga, qalamkash do‘stim, Toshkent tarixini teran o‘rgangan Sirojiddin Ahmedovga samimiyl minnatdorchilik bildiraman. 1865 yili Toshkentni qonga botirgan Chernyayev hujumiga qarshi xalqni

oyoqlantirgan ulug‘ zotlar qatorida Hakimxo‘ja qozi kalon, Domulla Solihbek Oxundlar bilan birga shahar va muzofotning eng e’tiborli eshoni bobokalonim Abulqosim eshon ham bo‘lgan ekanlar. N.Ostromovning “Fon Kaufman – Turkiston o‘lkaining tashkilotchisi” kitobida bu hayratomuz hodisa shunday tasvirlanadi: ... Ulug‘ Xemeningueyning gapi bor: “Yozuvchi uchun to‘rtta abadiy mavzu bor: muhabbat, mehnat, urush, o‘lim. Qolgan barcha gaplar shular atrofida aylanadi...” Urgench – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha yigirma to‘rtinchi reys bilan uchib kelgan yo‘lovchi Teshaboy Boltaboyevich Dehqonboyev! – Timiryazev, - dedi muxbir aniqlik kiritib. Ruxsatingiz bilan o‘zimni tanishtirsam. Jonetta Qobulovana Xaltayeva... Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘aloni”, Erkin Vohidovning “Oltin devor” va yana talay suyukli asarlarini “fosh qilgan” shu edi... Bir yili Said Ahmad aka, Asqar Muxtor, Umarali Normatov – xullas bir guruhi ijodkorlar Qashqadaryoga bordik. Bunaqa betartibliklarni uncha yoqtirmaydigan Nosir Fozilov – tajang. Erkin Vohidov, Rahmatulla Inog‘omov, men – uzun-qisqa bo‘lib kirib bordik. Toshkent dorilfununing domlasi Bahodir G‘ulomov boladek beg‘ubor, sodda odam edi, rahmatli. Ozod aka, Bahodir aka, Abdug‘afur Rasulov, Begali Qosimov poyezdda o‘tirib jo‘nadik.

Taxallus – (arabcha - o‘zini-o‘zi qutqarish, ozod qilish, xolos bo‘lish) biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh.k.) yoki siyosiy arbobning o‘zi uchun tanlab olgan boshqa, ikkinchi nomi. Taxallular: Nodirabegim – Umarxonning jufti haloli, malika bo‘lgan. Shunaqa-ku, kambag‘al yanayam kambag‘allahib ketaversa-yu , birov holing nima kechdi, demasa, boy yanayam boyib ketaversa-da, ajoyib kunlarning birirda kambag‘alning uyini sotib olmoqchilagini shama qilsa, Bedil hazratlari ko‘p asrlar avval yozgan bayt haqiqatga aylana boshladi. Mashrabni dorga torttirganlar, Nasimiyni tiriklayin terisini shildirganlar, Ibn Sinoni dahriy deb fatvo bergenlar shular emasmidi?! Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o‘z asarlarida 21 ming 197 ta betakror so‘z ishlatgan. Shekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta so‘z, shu jumladan 26 mingta betakror so‘z ishlatgan. Gulxaniy go‘lohlik qilib kun kechirgan, deyishadi. Muqimiy hattot bo‘lgan. Zavqiy maxsido‘zlik qilgan. Ogahiy – mirob, Avaz O‘tar – sartarosh, Maxmur sarboz bo‘lgan.

Laqab – (arabcha). 1. Biror xususiyatga ko‘ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘sishma nom; shuningdek, ma’lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom. 2. Esk. Ayn. Taxallus. 3. Esk. Ayn. Familiya.

Laqab: - Jevachkangdan Shohruhga ham berdingmi. Dilish? Shu odamni har ko‘rganda Afandining o‘jar xotini esimga tushadi. Shu o‘zimizdi Jumagul satangga borg‘anman-da! Said Ahmad aka peshanasini Rashid abzining garmoniday tirishtirib, chuqr va uzoq uyga tolidi. Muzdek suvdan chiqib, qirg‘oqda isinib yotganimizda “Ayiq amaki” kelib qolardi.

Teonimlar: Rivoyat qilishlaricha Iso alayhissalom mayitni tiriltirgach ixlosmandlari qatori hasadgo‘y raqiblari ham ko‘payib ketadi. Odam Ato zamonidan qolgan odat bor. Hadisi – sharifda ta’kidlanishicha, Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallam aytgan ekanlar: “Qaysi ota-onha uch qizni tarbiyalab voyaga yetkazsa, shular jannatda mening yonimdan joy oladi...”

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. B. Yo‘ldoshev O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand – 2011
2. M. Xudoyerova Onomastika Toshkent “Muxr-Press” 2020
3. T. Nafasov., V. Nafasova O‘zbek tili toponimlarining o‘quv lug‘ati Toshkent “Yangi avlod” 2007